



Feruza UMUROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: Umuroferuza@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor X.Narxodjayeva taqrizi bilan

LINGUISTIC AND NON-LINGUISTIC EXPRESSION OF POLITENESS IN INTERNET COMMUNICATION

Annotation

This article analyzes the linguistic and non-linguistic expressions of politeness in internet communication. Non-linguistic expressions such as emojis and the stylistic use of punctuation marks are examined as tools for conveying social and emotional signals. The article also explores the positive and negative impacts of adhering to or deviating from norms of politeness in online communication on cultural values and interpersonal relationships in society.

Key words: Internet communication, politeness, linguistic expression, non-verbal means, punctuation, virtual communication, communication culture, speech etiquette.

ЯЗЫКОВОЕ И НЕЯЗЫКОВОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ВЕЖЛИВОСТИ В ИНТЕРНЕТ-ОБЩЕНИИ

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические и нелингвистические выражения вежливости в интернет-коммуникации. Нелингвистические выражения, такие как эмодзи и стилистическое использование знаков препинания, рассматриваются как средства передачи социальных и эмоциональных сигналов. Также в статье исследуются положительные и отрицательные последствия соблюдения или отклонения от норм вежливости в онлайн-общении для культурных ценностей и межличностных отношений в обществе.

Ключевые слова: Интернет-общение, вежливость, языковое выражение, невербальные средства, пунктуация, виртуальное общение, культура общения, речевой этикет.

INTERNET MULOQOTIDA XUSHMUOMALALIKNI LISONIY VA NOLISONIY IFODALANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada internet muloqotida xushmuomalalikning lisoniy va nolisoniy ifodalanish shakllari tahlil etilgan. Nolisoniy ifodalar esa emodjilar, punktuatsiya belgilarining stilistik funksiyasi orqali uzatiladigan ijtimoiy va hissiy signallar sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada, shuningdek, internet muloqotida xushmuomalalik me'yorlariga amal qilish yoki ulardan chekinishning jamiyatdagi madaniy qadriyatlar va shaxslararo munosabatlarga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Internet muloqoti, xushmuomalalik, lisoniy ifoda, nolisoniy vosita, punktuatsiya, virtual muloqot, muloqot madaniyati, til etiketi.

Kirish. Internet va ijtimoiy tarmoqlar XX asr insonining kundalik hayotida ajralmas qismga aylangan bo'lib, ular orqali insonlar o'zaro muloqot qiladi, ma'lumot almashadi va global hamjamiyatning bir qismi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tarixan qaranganda, internet aloqasi telegraf, telefon va elektron pochta kabi kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi asosida shakllangan bo'lsa-da, uning hozirgi holati butunlay yangi ijtimoiy muhitni yaratdi. Shu nuqtai nazardan, internet muloqoti nafaqat texnologik, balki sotsiologik, psixologik va axloqiy jihatdan ham o'rganilishi zarur bo'lgan hodisadir. Bugungi kunda global axborot makonining tobora kengayib borishi va inson faoliyatining ko'plab sohalarining raqamli olamga ko'chib o'tishi bilan, muloqot madaniyatining yangi – raqamli formatini shakllantirish zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda. Internetdagi xushmuomalalik esa endilikda shunchaki ijtimoiy odob doirasidagi meyor emas, balki butun raqamli jamiyatning axloqiy poydevorini tashkil etuvchi muhim omil sifatida talqin qilinmoqda.

An'anaviy va raqamli kommunikatsiya o'rtasidagi asosiy farqlardan biri — bu vaqt va makon cheklolarining nisbiyligi hamda kommunikatsiya ishtirokchilarining ko'pincha anonim yoki rolli obrazlarda qatnashishidir. Shu holat muloqot jarayonida axloqiy mezonlarni ancha muhim o'ringa olib chiqadi. Bunday sharoitda xushmuomalalik shunchaki muloqot madaniyatining estetik unsuri emas, balki

barqaror va sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlovchi axloqiy mexanizmga aylanadi. Ayniqsa, virtual makondagi etik qoidalar –insonparvarlik tamoyillarining texnologik muhitda qayta talqin etilgan ko'rinishidir. U muloqotdagi muvozanatni saqlashga xizmat qilishi bilan birga, raqamli jamoaviy ongni shakllantirishga ham hissa qo'shadi. Bu jarayonda shaxsiy erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi nozik chegarani saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, internet muloqotining axloqiy darajasi faqat foydalanuvchilarning madaniyatiga emas, balki texnologik tizimlarga ham chambarchas bog'liq. Sun'iy intellektga asoslangan tavsiyaviy algoritmlar, kontentni filtrlovchi tizimlar va raqamli etikani nazorat qiluvchi mexanizmlar — bularning barchasi internetdagi axloqiy muhitni shakllantiruvchi muhim omillardir. Shu sababli, raqamli axloqni faqat individual qadriyat sifatida emas, balki texnologik boshqaruvga ehtiyoj sezuvchi murakkab tizim sifatida ko'rish lozim.

Shu bois, kelajakdagi raqamli jamiyatda xushmuomalalikni insoniy fazilat emas, balki institutsional qadriyat sifatida qayta baholash tobora muhimlashib bormoqda. Madaniy-gumanitar yondashuvlar bilan birga, texnologik yondashuvlarning uyg'unlashuvi axloqiy kommunikatsiya madaniyatining barqaror rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sh.H. Shohabiddinova va Sh.X. Yuldashevalar o'zlarining "Internet muloqot va uning tadqiqiga doir ayrim mulohazalar" nomli ilmiy maqolasida internet orqali amalga oshirilayotgan muloqot jarayonining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil etgan bo'lib, yuqorida keltirilgan ijobiy tomonlar mazkur tadqiqotda o'z tasdig'ini topganligini ko'rish mumkin. [Shohabiddinova, Sh. H., & Yuldasheva, Sh. X. (2018). Internet muloqot va uning tadqiqiga doir ayrim mulohazalar. Ilmiy xabarnoma, № 2, 85-88-b.]

Mualliflar alohida e'tibor qaratgan jihat shundaki, internet muloqotning kamchiliklari ko'p hollarda uning afzalliklari bilan chambarchas bog'liq. Jumladan:

Hududiy chegarasizlik internet foydalanuvchisiga Yer yuzining istalgan nuqtasidagi insonlar bilan bog'lanish imkonini bersa-da, bu holat muloqot oqimini noxush yoki nomaqbul yo'nalishga og'dirish xavfini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, javobgarlikdan holi ekanini sezgan foydalanuvchi o'zini cheksiz erkin his qilib, odob va axloq meyorlaridan chetga chiqishi mumkin.

Vaqt bo'yicha chegaralanmaganlik esa doimiy onlayn bo'lish istagini shakllantirib, insonni real hayotdagi faoliyatidan chalg'itishi, ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli yuqori. Istalgan paytda muloqotga kirishish imkoniyati muloqot madaniyatidagi an'anaviy vaqtga nisbatan hurmat kabi qadriyatlarning yo'qolishiga olib kelmoqda.

Anonimlik virtual muloqotni yuzma-yuz muloqotga qaraganda ancha himoyasiz holga keltiradi. Suhbatdosh shaxsini yashirish orqali istalgan obrazda ko'rinish olishi mumkinligi sababli, muloqot ishonchligi sezilarli darajada pasayadi.

Ixtiyoriylik — muloqotni istalgan vaqtda boshlash yoki tugatish imkoniyati foydalanuvchiga erkinlik bersa-da, ayni paytda suhbatni beparvolik, e'tiborsizlik yoki javobsizlik bilan yakunlash holatlarini ham kengaytiradi.

Globalashuv natijasida milliylik, madaniy mentalitet, jinsiy va tabaqaviy chegaralar ahamiyatini yo'qotmoqda. Virtual makon ommaviy madaniyat unsurlarini ustun qo'yib, milliy muloqot madaniyati va o'ziga xosliklarini sekinlik bilan siqib chiqarmoqda.

Xavfsizlik xavfi ham virtual muloqotning muhim muammolaridan biridir. Paralingvistik belgilar – ovoz ohangi, tana tili, ko'z harakati kabi ishoraviy vositalarning yo'qligi natijasida, suhbat davomida shaxsni baholash, xavfni sezish yoki oldini olish mexanizmlari deyarli ishlamay qoladi.

Muloqot uchun qulay konstitutsiyani tanlash imkoniyati esa, bir tomondan qulaylik bo'lsa, ikkinchi tomondan, suhbatga e'tiborsizlik, loqaydlik, muhim jihatlarini e'tibordan chetda qoldirish kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu esa, umumiy muloqot samaradorligining pasayishiga olib keladi.

[Shohabiddinova, Sh. H., & Yuldasheva, Sh. X. (2018). Internet muloqot va uning tadqiqiga doir ayrim mulohazalar. Ilmiy xabarnoma, № 2, 85–88.]

Sh.H. Shohabiddinova va Sh.X. Yuldashevalarning "Internet muloqot va uning tadqiqiga doir ayrim mulohazalar" nomli ilmiy maqolasi zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarining murakkab, ko'p qirrali tabiatini ochib berishda muhim nazariy asos vazifasini o'taydi. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, virtual muloqotning har bir afzalligi o'zida salbiy oqibatlarining zarracha urug'ini ham mujassam etadi. Bu esa raqamli muloqotga yondashishda oddiy "yaxshi-yomon" binar mezonlari o'rniga tizimli, ko'p o'lchovli yondashuvni talab etadi. Avvalo, makon va zamon chegarasining yo'qligi global integratsiya uchun beqiyos imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, bu holat jamiyatga xos

bo'lgan ijtimoiy-madaniy chegaralarning erib ketishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, milliy muloqot meyorlarining ommaviy madaniyat talablari oldida zaiflashuvi, madaniy identitet va kommunikativ mustaqillik uchun real xavf tug'diradi. Bunday sharoitda raqamli muloqotni faqat texnologik qulaylik sifatida emas, balki madaniy suverenitet maydoni sifatida qayta ko'rib chiqish zarur.

Mualliflar ta'kidlagan anonimlik fenomeni esa, bir qarashda, shaxsiy erkinlikni kengaytiruvchi omil sifatida talqin qilinsa-da, u muloqot ishtirokchilari orasidagi ishonch, javobgarlik, empatiya kabi insoniy fazilatlarni zaiflashtiradi. Bu holat internet makonida axloqiy meyorlarning individuallashtirilishiga, hatto dezintegratsiyalashuviga olib kelmoqda. Anonim muloqot vositasida axborot berayotgan shaxsning "reallik" mezonlari yo'qoladi, natijada esa muloqotda ishtirok etayotgan insonlar orasida ijtimoiy-madaniy distansiya kuchayadi. Ayniqsa, ijtimoiy signal va paralingvistik vositalarning yo'qligi, muloqotning emotsional va kontekstual qatlamlarini kamaytiradi. Bu esa muloqot samaradorligiga putur yetkazib, insonlar o'rtasidagi to'laqonli anglashuv imkonini cheklaydi. Internet orqali kechadigan muloqotda bunday "semantik vakuum" sharoitida noto'g'ri talqin, tushunmovchilik, hattoki ijtimoiy nizolar ehtimoli ham ortadi.

Shuningdek, muloqotning ixtiyoriyligi va uzluksizligi, bir tomondan, foydalanuvchiga kommunikatsion erkinlik bersa-da, ikkinchi tomondan, mas'uliyatsiz, vaqtini qadrlamaydigan, shaxslararo muloqotga loqayd bo'lgan psixologik holatni shakllantirishi mumkin. Muloqotga istalgan vaqtda kirishish imkoniyati insonning real hayotdagi vaqt va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq tajribasini o'zgartiradi. Bu esa jamiyatning umumiy muloqot madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Shohabiddinova va Yuldashevalar ko'tarib chiqqan muammolar shuni ko'rsatadiki, internet muloqotini baholashda biz nafaqat texnik, balki sivilizatsion yondashuvni ham qo'llashimiz zarur. Raqamli kommunikatsiya sharoitida ijtimoiy madaniyatning qanday shakllanishi, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday tus olishini chuqur o'rganish — bu nafaqat lingvistik yoki sotsiologik, balki gumanitar strategik vazifa sifatida qaralishi lozim. Shundagina biz internet muloqotni insonparvarlik, madaniyat va milliy ong asosidagi rivojlanish yo'liga yo'naltira olamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Internet muloqotida xushmuomalalik — bu odob-axloq, hurmat va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan axloqiy tamoyillar majmui hisoblanadi. U internetda yuz beradigan turli ijtimoiy aloqalarda insonlarning o'zaro munosabatlarini silliqqlash, nizolar va noto'g'ri tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Xushmuomalalik, ayniqsa anonimlik va masofaviylikning yuqori bo'lgan virtual makonda, insonlarning bir-biriga hurmat bilan qarashi va madaniyatli muloqot qilishini ta'minlaydi.

Internet aloqaning o'ziga xos xususiyatlari o'z ichiga internet tarmog'ini qamrab olgan ommaviy kommunikatsiyaning xususiyatlari bilan aynan mos keladi. N.N. Bogomolova ommaviy kommunikatsiyaning quyidagi: muloqotda texnik vositalaridan foydalanish, katta ijtimoiy guruhlarining jalb qilinishi, qayta aloqa javobining majburiy emasligi, kommunikantlarning real hayotda notanish, anonim qolgan holda bir-biridan ayyorligi kabi asosiy xususiyatlarini ajratadi. [Bogomolova, N. N. Massovaya kommunikatsiya i obsheniye / N. N. Bogo-molova. – M.: Znaniye, 1988. – 80 s]

Internet foydalanuvchilari orasida xushmuomalalikni ifodalovchi birliklar sog'lom muloqot muhitini yaratib, o'zaro hurmatni kuchaytiradi. Virtual makonda madaniyat va odob-

axloq normalarining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Hurmatga asoslangan muloqot foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumot almashishni osonlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar uchun odob-axloq qoidalari ishlab chiqilishi va ularning monitoringi yo'lga qo'yilishi kerak. Internetdan foydalanuvchilarni onlayn xushmuomalalik va madaniyatga o'rgatish maqsadida treninglar, seminarlar va ma'lumotlar taqdim etilishi muhimdir.

Bugungi kunda internet muloqoti insonlar hayotidagi eng muhim kommunikatsiya vositalaridan biri bo'lib, uning ijtimoiy ahamiyati katta. Shu bilan birga, internet muloqotining samarali va mazmunli bo'lishi uchun xushmuomalalik tamoyillarining qattiq amal qilinishi zarur. Bu nafaqat muloqot sifatini yaxshilashga, balki internetning yangi ijtimoiy muhit sifatida ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelajakda internet muloqotidagi xushmuomalalikni yanada mustahkamlash uchun ilmiy tadqiqotlar, amaliy chora-tadbirlar va texnologik yondashuvlarning integratsiyasi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, internet muloqotidagi xushmuomalalik masalasi nafaqat axloqiy meyor sifatida, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik kommunikatsion resurs sifatida ham qayta baholanishi zarur. Bugungi virtual muhitda yuzaga kelayotgan axborot oqimi faqat texnologik emas, balki madaniy va axloqiy tartibga solishni ham talab qilmoqda. Ayniqsa, kommunikatsiya maydonida yuzaga kelayotgan ziddiyatlar, "cancel culture", "hate speech" kabi fenomenlar, shuningdek, sun'iy intellekt yordamida yuzaga kelayotgan manipulyativ kommunikatsiya vositalari, internetdagi muloqot madaniyatini mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Internetda xushmuomalalikni mustahkamlash jarayoni, aslida, axborot jamiyati etik tamoyillarining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq. Bunday sharoitda faqat individual foydalanuvchi madaniyatini oshirish emas, balki raqamli platformalar darajasida institutsional etik standartlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi kompaniyalar, ijtimoiy tarmoqlar egasi bo'lgan transmilliy korporatsiyalar o'z mahsulotlariga ijtimoiy mas'uliyat bilan yondashib, kommunikatsiya jarayonida etik filtrlash va axloqiy monitoring mexanizmlarini joriy etishlari lozim.

Bundan tashqari, raqamli muloqotdagi xushmuomalalikni rivojlantirish faqatgina axborot siyosatining bir qismi sifatida emas, balki ta'lim, ijtimoiy ong va axborot pedagogikasining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi kerak. Chunki raqamli makonda madaniyat faqat qoidalar orqali emas, balki ongli va barqaror qadriyatlar tizimi orqali shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy insonning raqamli savodxonligi,

axborot estetikasi, kommunikatsion javobgarligi kabi kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Zamonaviy sivilizatsiya sharoitida "raqamli etik ong" tushunchasi yangi metodologik mezon sifatida ilmiy muomalaga kirib kelmoqda. Bu ong nafaqat texnologiyalardan foydalanish madaniyatini belgilaydi, balki insonlarning o'zaro hurmat, sabr-toqat, ijtimoiy empatiya kabi qadriyatlarga asoslangan muloqot yuritishini rag'batlantiradi. Shunday ekan, internet muloqotidagi xushmuomalalikni rivojlantirish — bu ijtimoiy kommunikatsiya va texnologiya chorrahasida shakllanuvchi murakkab, lekin strategik jarayondir. Kelajakda bu borada olib boriladigan fundamental tadqiqotlar, davlat siyosatidagi axborot-kommunikatsion strategiyalar va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki orqali internet muloqotini yanada madaniy, inkluziv va insonparvar mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy institut sifatida rivojlantirish mumkin bo'ladi. Zero, raqamli makonda hurmat, bag'rikenglik va axloqiy tamoyillarga tayanmagan muloqot, jamiyatni integratsiyalash emas, balki fragmentatsiyalashga olib kelishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Internet muloqotida xushmuomalalik faqat so'zlar orqali emas, balki turli xil vizual vositalar — stikerlar va smayliklar (emoji) orqali ham ifodalanadi. Bu belgilar insonlarning onlayn muloqotidagi hissiyot va niyatlarini aniqroq yetkazishga yordam beradi hamda yuzma-yuz muloqotdagi mimika va tana tilining o'rnini qisman to'ldiradi.

Stikerlar va smayliklar muloqotni yanada samimiy va iliq qiladi. Masalan, tabassum qiluvchi yuz yoki mehribon stiker xabarni qabul qiluvchiga do'stona niyatni yetkazadi va muloqotda muhitni yumshatadi.

Matnli xabarlar ko'pincha noaniq yoki qattiq ko'rinishi mumkin. Smayliklar yordamida gapning hazil yoki iliq ma'noda ekanligi ko'rsatilib, tushunmovchilik ehtimoli kamayadi.

Rasmiy yoki noformal so'zlashuvlarda mos smaylik va stikerlardan foydalanish, muloqotda xushmuomalalik va hurmat belgisi sifatida qabul qilinadi.

Stikerlar va smayliklar yordamida insonlar o'zaro munosabatlarni yaxshilash, samimiyligni oshirish va do'stlik munosabatlarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa. Stikerlar va smayliklar internet muloqotida xushmuomalalikni ifodalashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular muloqotning ijobiy, hurmatga asoslangan va samimiy muhitda bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu vizual elementlardan to'g'ri va mo'tadil foydalanish internetdagi axloqiy tamoyillarga rioya qilishning muhim qismidir.

ADABIYOTLAR

1. Umurova F.P. Xushmuomalalik kategoriyasining nutq strategiyalari va kommunikativ funksiyalari// International Scientific and Practical conference "Actual issues science". 2024. –B. 209-215.
2. Umurova F.P. Badiiy matnda xushmuomalalik ifodalovchi vositalar// International scientific-practical conference Actual problems of science and education in the face of modern challenges. 2024. –B.145-152
3. Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
4. Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.
5. Herring, S. C. (2007). A Faceted Classification Scheme for Computer-Mediated Discourse. Language@Internet.
6. Baron, N. S. (2008). Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press.
7. Yus, F. (2011). Cyberpragmatics: Internet-Mediated Communication in Context. John Benjamins Publishing.
8. Uzbek tilshunosligida muloqot madaniyati masalalari (maqolalar to'plami). – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
9. Axmedova, M. (2020). "Zamonaviy axborot muhitida til madaniyati va axloqiy qadriyatlar". – Filologiya masalalari №2.